



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th September, 2026

Website: <https://econferencia.com>

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA EKOLOGIK AXLOQNING O'RNI

Bayeshanov Abdulla

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekologik axloq muammosi global iqlim o'zgarishlari yoki balandparvoz ekologik shiorlar darajasida emas, balki har bir insonning kundalik maishiy hayoti, odatlari va tanlovlari prizmasidan ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, ekologik inqiroz faqat tashqi tabiatning yemirilishi emas, balki zamonaviy iste'mol madaniyati keltirib chiqargan axloqsizlik, beparvolikning mahsuli ekani yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolada, ma'naviy isrofgarchilik va ekologik axloqsizlik o'rtasidagi bog'liqlik, Sharqona qadriyatlardagi qanoat, isrof qilmaslik kabi tushunchalar hamda shaxsning ichki vijdoni orqali ekologik mas'uliyatni uyg'otish mumkinligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik axloq, isrofgarchilik, iste'molchilik madaniyati, vijdon, qanoat, ekologik mas'uliyat.

Biz tabiat haqida gap ketganda ko'pincha uzoqdagi o'rmonlarning qisqarib borayotgani, erib borayotgan muzliklar, yo'qolib ketayotgan hayvonlar yoki yirik zavodlarning qora tutunini tasavvur qilamiz. Ekologik muammolarni har doim kimdir - hukumat, mansabdorlar yoki xalqaro tashkilotlar hal qilishi kerak bo'lgan global masala deb o'ylaymiz. Lekin oddiy bir haqiqatni doim unutamiz. Bu ham bo'lsa, global ekologik inqiroz aslida bu kundalik hayotimizdagi tabiatga nisbatan qilayotgan salbiy mayda xatti-harakatlarimizning yig'indisidir.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th September, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bugungi kunda ekologik axloq haqida soʻz borganda koʻpincha quruq qoidalar, qandaydir qonunlar tilga olinadi. Vaholanki, ekologik axloqning asl negizi tashqarida emas, balki odamning oʻz uyidagi kundalik odatlarida, isrofgarchilikka munosabatida va shaxsiy vijdonida yotadi. Odamzot oʻzini toza tutishni, uyini sarishta qilishni biladi, lekin oʻsha uyning tashqarisidagi umumiy tabiatga kelganda nima uchundir buni unutib, aks munosabat koʻrsata boshlaydi. Insonning tabiatga boʻlgan munosabati uning oʻz hayotiga boʻlgan munosabatining koʻzgusidir. Zamonaviy isteʼmol jamiyati shunday tuzilganki, u insonda “men pulini toʻladimmi, demak nima qilsam oʻzim bilaman” degan soxta va ayanchli ishonchni shakllantirgan. Masalan, kran toʻla ochilgan holda idish yuvish, soatlab oqib yotgan suvga befarq qarash yoki bozordan kerak-kerak emas mahsulotlarni qop-qop koʻtarib kelib, yarmidan koʻpini muzlatgichda aynitib axlatga tashlash. Shu va shu kabi odatlar bizga oddiy maishiy holdek koʻrinadi. Lekin falsafiy mushohada qilsak bu isrofgarchilik va axloqsizlikdir.

Isteʼmolchilik madaniyati insonda masʼuliyatni yoʻqotadi. Chunki paketni doʻkonda olamiz, uyni tozalaganda uni koʻzdan nari qilib chiqindi qutisiga tashlaymiz va shu bilan biz uchun muammo tugaydi. Biz uni qayerga ketishini, tuproqda yillar davomida chirmasligini oʻylamaymiz. Ana shu “koʻzdan nari — koʻngildan nari” qabilida ish tutamiz. Bu esa ekologik axloqsizlikning asl sababidir. “Oziq ovqat chiqindisi 4-6 haftagacha, karton va turli xildagi qogʻoz 1 oydan 2 yilgacha, segaret qoldigʻi 10 yildan 20 yilgacha, plastik paket 10 yildan 20 yilgacha, plastik stakan 50 yil, batareya 100 yil, alyumin banka 80-200 yil, plastik baklashka 450 yil, bir martalik taglik 550 yil, hisha 1000000 yil yoki umuman chirimaydi”[1].

Hukumat qonun chiqarishi, jarima belgilashi mumkin. Lekin hech qanday davlat organi yoki nazorat kameralari insonning oʻz uyida, koʻchada yoki tabiat



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th September, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qo‘ynida yolg‘iz qolganda nima qilishini nazorat qila olmaydi. Bu yerda faqat bitta boshqaruvchi mexanizm ishlaydi. Bu ham bo‘lsa vijdon!

Ekologik axloq - bu kimdir qarab turganda yoki jarima solishidan qo‘rqib o‘zini to‘g‘ri tutish emas. Aksincha, hech kim ko‘rmaganda ham daraxtga ziyon yetkazmaslik, suvni tejamkor ishlatish va tabiatga nisbatan hurmat saqlashdir.

Sharq falsafasida, xususan mumtoz merosimizda va tasavvufiy qarashlarda “qanoat”, “tejamkorlik” va “isrof qilmaslik” kabi tushunchalar har doim yuksak axloqiy fazilat sifatida ulug‘langan. Islom falsafasida ham, boshqa an‘naviy madaniyatlarda ham tabiatni ehtiyot qilish, suvni iflos qilmaslik, hatto suvga tuflamaslik qat‘iy qoida bo‘lgan. Qanoat bu “(arab. mamnunlik; boriga shukr qilish; kamsuqumlik) - o‘ziga yoki boriga ko‘nish tamoyiliga asoslangan ma‘naviy tuyg‘u, bori bilann kifoyalanish. nafs tiyqlik bilann ko‘p narsaga, ortiqchalikka intilmaslik, qoniqish hissi”[2;711]dir. Qanoat bu kambag‘allik emas, balki ehtiyojdan ortig‘ini ishlatmaslik madaniyatidir. Afsuski, hozir jamiyatda aynan mana shu fazilat yetishmayapti.

Har safar do‘konda plastik paket o‘rniga mato xaltasini ishlatganimizda, kran to‘la oqib yotganda uni yopib qo‘yganimizda, yoki keraksiz narsalarni sotib olishdan o‘zimizni tiyganimizda, biz shunchaki mayda ish qilmaymiz. Biz axloqiy tanlov qilamiz.

Axloq – “(arab. xulqning ko‘pligi; lot.moralis - xulq-atvor) - ma‘naviyy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma‘naviyat sohasiga oid. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me‘yor va qoidalar yig‘indisi”[2;48]. “Axloqdagi “yaxshilik”, “yaxshi odatlar” insonning o‘z manfaatini jamiyat manfaatiga moslashga, ayrim o‘rinlarda jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘z hayotiy maqsadlari,manfaatlarini o‘zgartirishga imkon beradi. Axloq birinchidan



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th September, 2026

Website: <https://econferencia.com>

umumijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan qadriyatlarni(boshqa kishilar huquqlarini tan olish, adolat, halollik, ishonch, sadoqat,muloyimlik, boshqalar bilan kelisha olish,til topishish,jamoadada o'zini tuta bilish kabi) qamrab oladi"[3;35]. Ushbu tushunchani tabiatga nisbatan tadbiqi ekologik axloq deyiladi. Ekologik axloq - bu qahramonlik qilish degani emas. Bu shunchaki boshqalarga va tabiatga xalaqit bermaslik, uni buzmaslik va o'zidan keyin axlat uyumini emas, toza iz qoldirish madaniyatidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik inqirozdan chiqish yo'li faqat yangi texnologiyalar yaratish yoki zavodlarga filtr o'rnatish bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy o'zgarish odamning ongida, uning kundalik odatlarida va ma'naviy olamida yuz berishi kerak. Inson tabiatni resurs manbayi emas, o'zining boshpanasi, uyidek his qilsa, isrofgarchilikni oldini olib, qanoatli bo'la olsagina ekologik axloq qaror topadi. Tabiat o'z injiqliklari bilan bizga qarshi urush qilmayapti, u shunchaki bizning axloqsizligimizga o'z reaksiyasini bildirayapti xolos. O'zgarishni boshqalardan emas, avvalo har birimiz o'zimizning kundalik turmush tarzimizdan boshlashimiz lozim. Shundagina ekologik axloqiy yetuklikka erishish, barqaror ekotizimda hotirjam yashash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayeva Maftunaxon, Yarova Sevara Baxodir qizi. (2025, April 29). PLASTIK MUAMMOSI VA EKOLOGIK INQIROZ: INSONIYAT O'ZI YARATGAN FALOKAT BILAN YUZMA-YUZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15304830>
2. Ma'naviyat:asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b.
3. Falsafa ensiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th September, 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
4. Bayeshanov, A. (2025). INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON UYGUNLIGI. Академические исследования в современной науке, 4(36), 35-38.
 5. BAYESHANOV, A. (2026). O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA BIOSENTRIZM VA EKOLOGIK VIJDON OMILINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. «ACTA NUUz», 1(1.3), 50-52.